SOG'LOM OILA FARZAND MA'NAVIY -PSIXOLOGIK QIYOFASINI BELGILOVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA

Toshmatov Bobohon Egamshukurovich, Nizomiy nomidagi O'zMPU katta o'qituvchisi

Hozirgi kunda jamiyatning rivojlanishining asosiy negizi hisoblangan oila masalasi, oilada yoshlarning tarbiyasini to`g`ri tashkil etish nafaqat har bir shaxsning oldiga qo`yilgan vazifa, balki butun bir davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan masala desak mubolag`a bo`lmaydi. Buning tub negizini esa kelajak avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash, hozirgi kundagi turli salbiy muammolarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish asosida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish g`oyasi tashkil etadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham o`z asarlarida: " Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, sog`lom pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o`zining dolzarbligini yo`qotmaydigan masala hisoblanadi" deb bejiz ta`kidlamaganlar. Chunki har bir shaxs uchun tarbiyaning va ijtimoiylashuvning birlamchi, boshlang`ich nuqtasi albatta, oila hisoblanadi.

Shu o`rinda yana shuni aytib o`tish joizki, har qanday millatning milliy-ma`naviy qiyofasini, milliy o`zligini saqlab qolishi hamda namoyon eta olishi ham oila bilan, oilaviy muhit bilan chambarchas bog`liqdir. Chunki o`zbek millatiga xos bo`lgan ota-onaga xurmat, qariyalarni e`zozlash, mehmondo`stlik, mehnatsevarlik, silai rahm, odamiylik kabi sof insoniy tuyg`ular ota - onaning na`munasi, bobo-buvi, aka-ukalarning ta`sirida yuzaga keladi, shakllanadi va rivoj topib boradi.

Oila har bir shaxs uchun birlamchi itjimoiylashuv o`chog`i bo`lib, shaxs ijtimoiylashuv mehanizmlari bo`lgan identifikatsiya, taqlid qilish, ishontirish kabilar ham shu oila a`zolarining xatti-harakatlari, oilaviy muhit ta`sirida yuzaga keladi. Hali yetuk shaxsga aylanmagan individ tomonidan ongli va ongsiz ravishda

boshqalarning xul-atvorini, qadriyatlarini va ijtimoiy me`yorlarini, hattoki his-tuyg`ulari, xatti-harakatlarini ham o`zida qayta tiklash jarayoni sodir bo`ladi. Buni hattoki xalqimiz orasida keng tarqalgan “Qush uyasida ko`rganini qiladi” degan maqolni tahlil qilish asosida anglab yetishimiz mumkin. Xo`sh shunday ekan, nega hozirgi kunda yoshlar orasida turli jinoyatchiliklar sodir bo`lishi ko`paymoqda, “tarbiyasi qiyin” va “xatar guruhi”ga kiruvchi o`smirlar soni ortib bormoqda, oilaviy ajrimlar esa kundan-kunga ko`paymoqda? To`g`ri, bu muammolarning negizi turli jihatlarga borib taqaladi, lekin har birining tub asosida oila, oiladagi psixologik muhit, oila a`zolari o`rtasidagi munosabatlar yotadi. Bugungi kunda oilaning o’z a’zolarining emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo‘lgan vazifalarda ham hissiylik ko‘proq tus olib bormoqda. Lekin shuni ta`kidlash joizki, oilaning barcha vazifalari asosini tarbiyaviy mohiyat tashkil etadi. Bu mohiyatni to`liq anglanilmasligi esa oilaning iqtisodiy, reakreativ, kommunikativ, regulyativ, feliotsitologik kabi vazifalarining yo`nalishi o`zgarishiga, ko`zlangan maqsaddan chetga chiqilishiga olib kelmoqda. Ko`pchilik tadqiqotchilar, yuqorida ko`rsatilgan muammolarning yuzaga kelish xavfini kuchayishiga oiladagi yomon psixologik muhit sabab bo`lishi qayd etilayotganini ta`kidlamoqdalar. Kriminolog mutaxassislar oiladagi nosog`lom muhit bolalarda jinoiy ustanovkalarni vujudga keltirishiga ishora qilyaptilar. Gastroenterologlarning kuzatuvlariga ko`ra, surunkali oshqozon kasalliklariga uchragan bolalarning oilalari ko`p hollarda nosog`lom psixologik muhitga egaligi bilan ajralib turishi alohida axamiyatga ega. Bundan ko`rinib turibdiki, albatta, oiladagi hissiy-psixologik nosog`lom muhit bolalarning jismoniy salomatligiga ham o`z ta`sirini o`tkazmoqda. Oilaviy muhitning nosog`lom bo`lishiga sabab bo`luvchi omillar deb, axloqsiz yoki asotsial hayot tarzi, oila a`zolari o`rtasidagi munosabatlarning nosog`lomligi, oila a`zolari o`rtasidagi ijtimoiy rollarning to`g`ri anglanib yetilmaganligi va bunga ma`suliyatsizlik bilan yondashish kabi yana bir qancha omillarni sanab o`tishimiz mumkin. Nosog`lom muhit hukm surgan oilada, bolalarga yetarlicha g`amxo`rlik

qilinmaydi, bolalarning moddiy va ma`naviy ehtiyojlari qondirilmaydi, sog`lom turmush tarziga o`rgatilmaydi, bolalarning kun tartibi va bo`sh vaqtlari to`gri tashkil etilmaydi, bunday bolalar ko`pincha jismoniy va jinsiy zo`ravonlik qurboniga aylanadilar, oilada yetarlicha qondirilmagan ichki kechinmalari, psixik extiyojlari bunday bolalarni begona ko`cha muhitiga boshlashi ham hech gap emas. Yuqorida sanab o`tilgan holatlarning barchasi, yakunda, bolalarda o`zini noadekvat his qilishi, o`ziga va imkoniyatlariga noadekvat baho berishga, boshqalar oldida o`zi va ota-onasi uchun uyat hissini tuyishiga, kelajak hayotiga nisbatan umidsizlik va maqsadsizlik kayfiyatini shakllanishiga olib keladi. Bu esa bolaning “Men” konsepsiyasi shakllanishini izdan chiqaradi va jamiyatda o`zining ijtimoiy shaxs sifatidagi pozitsiyasini buzilishiga olib keladi. A.N.Yevseevaning bu boradagi mulohazalariga ko`ra, dialog tamoyillariga asoslangan muloqot natijasida yuzaga oilaviy muhit bolaning o`zi haqidagi tasavvurlari adekvat rivojlanishiga zarur bo`lgan sharoitni yaratar ekan. Haqiqatdan ham, qachonki insonning asosiy extiyojlaridan biri hisoblangan muloqotga bo`lgan ehtiyoji oilada to`liq qondirilsagina, inson oilada faqat tinglovchi emas, balki kommunikator sifatida ham yetarlicha eshitilsagina, oiladagi munosabatlar o`zaro hurmatga, o`zaro ishonchga, o`zaro xayrihohlik va hamkorlikka quriladi deb aytishimiz mumkin. Oiladagi ta`limiy muhit yuqoriligi jihatidan ham aynan qanday psixologik shart-sharoitlar bolalarning shaxs sifatida rivojlanishiga ta`sir etishi aniqlangan bo`lib, xususan, bunday shart-sharoitlar quyidagilar ekanligi qayd etiladi:

- ota-ona va bolalarning oiladagi ta`limiy muhitdan foydalanishga asoslangan hamkorlikdagi faoliyati;
- ota-onaning bolaga munosabatida yordamga tayyorlik va talabchanlik ustanovkalari ustunlik qilishi;
- ota-onaning bola shaxsidagi ijobiy o`zgarishlarni juda muhim hodisa sifatida qabul qilishi;
- ota-ona oiladagi va ta`lim muassasasidagi ta`limiy muhitni o`zaro uyg`unlashtirishga intilishi. Bundan ko`rinib turibdiki, ota-ona bola uchun nafaqat

na`muna ko`rsatuvchi shaxs, balki qaysidir ma`noda, bolaning kelajagini modelini tuzuvchi mutaxassis hamdir.

Xulosa qilib aytganda, oila – bu bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo`lishida, faol ijtimoiy shaxs pozitsiyasini egallashida muhim axamiyat kasb etadigan pedagogik-psixologik muhit. Shuning uchun ham ko`pchilik olimlar oilaning asosiy vazifasi sifatida uning tarbiyaviy vazifasini e`tirof etib kelmoqdalar. Garchi, oila bir kichik Vatan, Vatanning rivoji uning tashkil etuvchi shaxslarga bog`liq bo`lganidek, oilaning ham barkamol bo`lishi uni tashkil etuvchi a`zolarga chambarchas bog`liqdir. Oilaviy muhitning ta`siri va axamiyati shundaki, birinchidan shaxs oilaviy, mustaqil hayotga tayyorlanadi, buning uchun zarur bo`lgan sifat va fazilatlarni egallab boradi. Ikkinchidan esa, jamiyatda faol shaxs sifatida qatnasha olishiga yordam beradigan aql, salohiyat, dunyoqarashga ega bo`lib boradi. Bularning barchasi esa sog`lom va barqaror muhitga ega bo`lgan oiladagina o`z tasdig`ini topadi. Shunday ekan, hozirgi kundagi jamiyatdagi salbiy muammolarni oldini olish uchun avvalo, oilalarimizdagi muhitni sog`lomlashtirish, farzandlarimizdagi salbiy illatlarning asosi oilada shakllana boshlashini unutmasligimiz darkor.